



# IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№5 (3)**



**2026**

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Bosh muharrir:**  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.  
3-qism*

**Bosh muharrir o'rinbosari:**  
Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**  
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoirazimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i  
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxonovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli**, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Prosecutor of Anijan Region  
**Ochilov Farkhod**, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Nazarova Ra'no Rustamovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Rustamov Ilkomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Rakhimovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
<b>Muxiddin Kalonov</b>	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
<b>Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li</b>	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
<b>Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich</b>	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
<b>Bobonarova Kamola</b>	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
<b>Azizova Habiba Arslonovna</b>	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
<b>Yusupova Dilbar Mirabidovna</b>	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPNOM SEKTOPE KAK INSTRUMENT RAZVITIYA ZEL'ENNOY EKONOMIKI UZBEKISTANA.....	61
<b>Abdullaeva Zaynab Ruslanovna</b>	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
<b>Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li</b>	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
<b>Ravshanjon Azimovich</b>	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
<b>Davidxodjayev Oybek Obidovich</b>	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
<b>Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.</b>	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
<b>Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li</b>	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
<b>Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi</b>	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
<b>Erkin Temirovich Shodiev</b>	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
<b>Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich</b>	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIVALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
<b>Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li</b>	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ ИQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI .....	118
<b>Rustamov Sheroz Oblokulovich</b>	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELИ ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL .....	123
<b>Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich</b>	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH .....	129
<b>Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva</b>	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
<b>Шафикова Луиза, Ойбек Камилов</b>	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА .....	150
<b>Омонтурдиева Диёра</b>	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
<b>Matkarimov Mansur</b>	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEХANIZMINING DASTAKLARI .....	161
<b>Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi</b>	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	167
<b>Дониерова Фотимабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI BAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH .....	173
<b>Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li</b>	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
<b>Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich</b>	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
<b>Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li</b>	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW .....	192
<b>Ashurova Sitora Xusnitdin qizi</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ .....	197
<b>Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов</b>	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
<b>Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li</b>	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
<b>Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi</b>	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
<b>Rajabova Malika Nuriddin qizi</b>	
NATIЈAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR .....	230
<b>Qosimova Gulyar Axmatovna</b>	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
<b>Наурызбаев Алиакбар Рустамович</b>	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ .....	239
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI .....	242
<b>Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna</b>	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
<b>Xannarov Komiljon Karimovich</b>	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
<b>Saidov Suhrob Shodmonovich</b>	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
<b>Akbarova Kamola Akmaljonovna</b>	
MOLIYAVIY TAHLIL AXBOROT BAZASINING KORXONA RAQOBATBARDOSHLIGIGA TA'SIRI .....	263
<b>Karimov Eminjon Gapardjonovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI .....	270
<b>Shermatov Axror Abdixakimovich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN SAMARALI FOYDALANISH VA ENERGIYA SAQLASH TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	275
<b>Ergash Bobobekov</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARIDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	281
<b>Yo'ldoshev Jamshid Nu'monovich</b>	
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	285
<b>Qurbonova Rahima Jamshedovna</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI ISH O'RINLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	290
<b>Ibroximova Nafosat Abdusattor qizi</b>	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA QAYTA ISHLASHNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	297
<b>Raximov Zikrullo Soyibjon o'g'li</b>	
RAQAMLI MUHITDA REKREATSION XIZMATLAR MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	302
<b>Usmanova Zumrad Islamovna</b>	
WAYS TO IMPROVE THE QUALITY OF EDUCATIONAL SERVICES IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	306
<b>Iskhakova Sarvar Ayubovna, Amriyeva Shahzoda Shukhratovna</b>	
BARQAROR TURIZMGA ERISHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	312
<b>Baxtiyorov Javlon Fazliddin o'g'li</b>	
MEVA MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY TIZIMI.....	316
<b>Yusufova Laylo G'ayrat qizi</b>	



AHOLISI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA QISHLOQ JOYLARINING BARQAROR RIVOJLANISHI: NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLAR.....	325
<b>Yusufjonov Jahongir Ilxomjon o'g'li</b>	
СТРАТЕГИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ В ФИЛОСОФИИ СТОИЦИЗМА И СОВРЕМЕННОЙ ТЕОРИИ СТРАТЕГИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ВЗГЛЯДОВ МАРКА АВРЕЛИЯ И КОНЦЕПЦИИ СТРАТЕГИРОВАНИЯ ВЛАДИМИРА Л. КВИНТА.....	329
<b>Норкулов Суннатбек Алишерович</b>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	335
<b>Kurbanov Baxodir Negmatullayevich</b>	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QULAY BIZNES MUHITINING TA'SIRI.....	341
<b>Vahidova Gulhayyo Arzi qizi</b>	
O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BANK KREDITLARI BILAN TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	347
<b>Raxmanova Ilmira Rustamovna</b>	
SAVDO KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MA'LUMOTLAR TAHLILI VA MAQSADLI MARKETINGDAN FOYDALANISH YO'NALISHLARI.....	354
<b>Toxirov Javlon Raximovich</b>	
MAXSUS IQTISODIY ZONALARNI TARKIBIY QISMLARI BO'YICHA BAHOLASHNING MUHIM OMILLARI.....	361
<b>Arslonov U. U.</b>	
RESURLAR TA'MINOTI TIZIMINING TASHKILY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI.....	367
<b>Arziqulova Oybarchin Eshquvat qizi</b>	
JAHON SAVDO TASHKILOTI TAMOYILLARI ASOSIDA SOLIQ SIYOSATINI MUVOFIQLASHTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	373
<b>Saitqulov Suxrob Shavkatovich</b>	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZLARNING KREDIT QOBILIYATINI BAHOLASH UCHUN SKORING MODELIDA SUN'Y INTELLEKTNI JORIY ETISHNING AHAMIYATI.....	380
<b>Komiljon Karimov</b>	
OLIY TA'LIM VA AMALIYOT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI ASOSIDA KADRLAR TAYYORLASH MENEJMENTINI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARI.....	386
<b>Karimova Xurshida Raximovna</b>	
QO'RIQLASH DEPARTAMENTIDA SOLIQ YUKLAMASINING MOLIYAVIY BARQARORLIKKA TA'SIRI VA UNI ICHKI MOLIYAVIY NAZORAT HAMDA AUDIT NUQTAYI NAZARDAN TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	390
<b>Salimbayev Mirsohibjon Mirsodiq o'g'li</b>	
ПОВЫШЕНИЕ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРОДОВОЛЬСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	396
<b>Ли Марина Рудольфовна</b>	
O'ZBEKISTONDA YER RESURLARINING AGRAR IQTISODIYOTGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	402
<b>Xoshimova Sevara Baxromovna</b>	
FARMATSEVTIKA IMPORT KOMPANIYALARIDA REKLAMA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH: "SHINING IMPEX" AJ MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	410
<b>Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna, Nurullayev Ilyosbek Xojiabdulla o'g'li</b>	
HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	417
<b>Turayev Baxtiyor Ergashevich</b>	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SANOATINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI VA SAMARADORLIKNI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	421
<b>Qalandarova Gulshoda Nazirjon qizi</b>	



QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARIDA DAVLAT SUBSIDIYALARINING MOLIYAVIY NATIJALARGA TA'SIR KANALLARI VA ULARNI HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI .....	427
<b>Davronbek Matyakubovich Matkarimov, Qadamov Mirzobek Ulug'bek o'g'li</b>	
O'ZGARUVCHILAR O'RTASIDAGI MUNOSABATLARNI REGRESSIYA MODELLARI ORQALI AMALIY TAHLILI .....	432
<b>Sakiyeva Ozoda Batirovna, Xushvaqtova Dilfuza Ramazon qizi</b>	
INSON KAPITALIGA YO'NALTIRILGAN INVESTITSİYALARNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	437
<b>Zayniddinov Aloviddin Zayniddin o'g'li</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KRIPTO-AKTIVLAR AYLANMASINI RIVOJLANTIRISH HAMDA BOZOR MUNOSABATLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	444
<b>Khakimov Bekzod Ilhomjonovich</b>	
O'ZBEKISTONDA MADANIYAT VA SAN'AT TA'LIMI MUASSASALARINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	453
<b>Atabayeva Yulduz Baxtiyar qizi</b>	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	457
<b>Ким Елена Радионовна</b>	
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI BOSHQARUV SAMARADORLIGI: HOLAT, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR.....	464
<b>Abdurasulova Zarina Sayfiddin qizi</b>	
STRATEGIC MARKETING CAPABILITIES AND ENTERPRISE COMPETITIVENESS IN DIGITAL PLATFORM ECOSYSTEMS: A CONCEPTUAL SMPC MODEL FOR EMERGING MARKETS .....	471
<b>Bakhtiyor Ruziev Eshmuminovich</b>	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ .....	477
<b>Усманова Зумрад Исламовна</b>	
UGLEROD CHIQINDILARINI KAMAÝTIRISHDA YASHIL INVESTITSİYALAR AHAMIYATINING NAZARIY ASOSLARI.....	480
<b>Jumaniyozov Feruzbek Dilshod o'g'li, Niyozmetov Doniyor Rejabbayevich, Majidov Jamoladdin Komoliddinovich</b>	
MEHMONXONA XO'JALIGI SUBEKTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	485
<b>Gulomqodirova Ma'muraxon Saydumarxon qizi</b>	
QISHLOQ MANZILGOHLARINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING MOHIYATI VA NAZARIY JIHATLARI .....	492
<b>Xusanova Sevara Shavkat qizi</b>	
QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION-INVESTITSION BOSHQARUV METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	499
<b>Raxmatillo Mirolimovich Egamov</b>	
MOLIYAVIY HISOBOTNING KOMPILYATSIYASI BO'YICHA TOPSHIRIQLARNI BAJARISH TARTIBI.....	503
<b>A.Z.Avlokulov</b>	



# MOLIYAVIY HISOBOTNING KOMPILYATSIYASI BO'YICHA TOPSHIRIQLARNI BAJARISH TARTIBI

A.Z.Avlokulov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada moliyaviy hisobotning kompilyatsiyasi bo'yicha kelishuvning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Kompilyatsiya xizmati mazmuni, uning audit va ko'rib chiqish xizmatlaridan farqli jihatlari, xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya jarayonini tashkil etish tartibi hamda professional buxgalterning majburiyatlari yoritilgan. Shuningdek, kompilyatsiya jarayonida moliyaviy axborotlarni tayyorlash, qayta ishlash va taqdim etish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi korxonalarda moliyaviy axborotlarni tizimlashtirish va ularning ishonchli taqdim etilishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** kompilyatsiya, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, buxgalteriya hisobi, audit, professional buxgalter, moliyaviy axborot.

**Abstract.** This article examines the theoretical and practical aspects of a financial statement preparation agreement. It covers the content of the financial statement preparation service, its differences from audit and expert assessment, the organization of the preparation process based on international standards, and the responsibilities of a professional accountant. The stages of preparation, processing, and presentation of financial information during the financial statement preparation process are also analyzed. The study substantiates the importance of financial statement preparation for systematizing financial information at enterprises and ensuring its fair presentation.

**Key words:** Compilation, financial reporting, international standards, accounting, audit, professional accountant, financial information.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты договора о составлении финансовой отчетности. Охвачены содержание услуги по составлению отчетности, ее отличия от аудиторской и экспертной оценки, порядок организации процесса составления на основе международных стандартов, а также обязанности профессионального бухгалтера. Проанализированы также этапы подготовки, обработки и представления финансовой информации в процессе составления отчетности. По результатам исследования обосновывается важность составления финансовой отчетности для систематизации финансовой информации на предприятиях и обеспечения ее достоверного представления.

**Ключевые слова:** компиляция, финансовая отчетность, международные стандарты, бухгалтерский учет, аудит, профессиональный бухгалтер, финансовая информация.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyati samaradorligini ta'minlash bevosita moliyaviy axborotlarning ishonchli va tizimli tayyorlanishiga bog'liq. Kichik biznes subyektlari va xususiy korxonalar uchun moliyaviy hisobotlarni qonunchilik hamda xalqaro standartlar asosida shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bu borada moliyaviy hisobotning kompilyatsiyasi bo'yicha xizmatlar amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Kompilyatsiya xizmati audit yoki ko'rib chiqish tekshiruvidan farq qiladi. Bu jarayon moliyaviy axborotlarni tekshirish yoki tasdiqlashni emas, balki ularni belgilangan hisob standartlari asosida tayyorlash hamda taqdim etishni ko'zda tutadi. «Kompilyatsiya bo'yicha topshiriqlar» nomli 4410-son Turdosh xizmatlarning xalqaro standartiga (TXXS) muvofiq, kompilyatsiya xizmati professional buxgalter tomonidan mijoz taqdim etgan dastlabki ma'lumotlarni qayta ishlash va moliyaviy hisobot shakliga keltirishdan iborat.

O'zbekiston iqtisodiyotiga xalqaro standartlarni joriy etish qonunchilik darajasida mustahkamlangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qaroriga asosan, aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari va yirik soliq to'lovchilar moliyaviy hisobotni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tayyorlaydi. Kichik va o'rta biznes subyektlari ham o'z hisobotlarini



xalqaro talablarga moslashtirish amaliyotini faol qo'llamoqda. Bunday sharoitda korxonalar hisobotlarni sifatli shakllantirish uchun professional kompilyatsiya xizmatlaridan muntazam foydalanadi.<sup>1</sup>

Kompilyatsiya xizmatlarining huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi «Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi O'RQ-677-son Qonunida belgilangan. Qonunning 45-moddasida auditorlik tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan turdosh xizmatlar tarkibida buxgalteriya hisobini yo'lga qo'yish, tiklash, yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish aniq sanab o'tilgan. Bu me'yorlar kompilyatsiya kelishuvlarining yuridik asosini tashkil etadi va tomonlar o'rtasidagi munosabatlarni qonuniy tartibga soladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliyaviy hisobotni kompilyatsiyalash masalalari auditing xalqaro standartlari hamda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, "Kompilyatsiya topshirig'i" nomli 4410-son TXXS (Turdosh xizmatlarning xalqaro standarti)ga binoan, "kompilyatsiya topshirig'i ishonchni ta'minlovchi topshirig bo'lmaganligi sababli, korxonahabariyati tomonidan kompilyatsiya uchun taqdim etilgan ma'lumotlarning aniqligi yoki to'liqligini tekshirishni yoki moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash bo'yicha auditorlik fikrni yoki tahliliy tekshiruv xulosasini bildirish uchun dalillar to'plashni talab qilmaydi. Korxonahabariyati moliyaviy ma'lumotlar va ularning tayyorlanishi hamda taqdim etilishi asoslari uchun javobgarlikni saqlab qoladi. Bu mas'uliyat rahbariyat tomonidan moliyaviy ma'lumotlarni tayyorlash va taqdim etish uchun zarur bo'lgan mulohazani qo'llashni, jumladan, tegishli hisob siyosatini tanlash hamda qo'llash va zarur bo'lganda, asosli hisob baholarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi" [1].

Rossiyalik iqtisodchi olim I.V.Alekseeva fikricha, "kompilyatsiya juda ko'p qirralidir, chunki tijorat tashkiloti faoliyatining turli bosqichlarida turli xil ma'lumotlarga muhtoj bo'lishi mumkin. Moliyaviy ma'lumotlarni kompilyatsiya qilish doirasida turli xil ma'lumotlarni olish va ishlab chiqish mumkin. Kompilyatsiya mavjud moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan ma'lumotlarni tijorat tashkiloti rahbariyati tomonidan talab qilinadigan hisobot formatiga o'zgartirishdir" [2].

"Xalqaro audit" nomli darslikda kompilyatsiya topshirig'i masalasi alohida yoritib berilgan. Mazkur darslikda ta'kidlanishicha, "kompilyatsiya kelishuvi odatda moliyaviy hisobotni tayyorlashdan iborat bo'lishi bilan bir qatorda (moliyaviy hisobotning to'liq to'plami bo'lishi mumkin bo'lmastligi ham mumkin), u boshqa moliyaviy hisobotni to'plash, turkumlash va umumlashtirishdan iborat bo'lishi mumkin" [3].

S.A.Djumanov aynan moliyaviy ma'lumotlarni kompilyatsiyalash masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Mazkur olimning fikricha, "moliyaviy axborotlar kompilyatsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotida yangilik bo'lib, u o'z ichiga - moliyaviy axborotlarni to'plash, tasniflash va umumlashtirish uchun auditorning buxgalteriya moliyaviy hisobi va hisoboti bo'yicha bilimlaridan (auditorning maxsus kasbiy tayyorgarligi, bilimi va qobiliyatiga ko'ra) ekspertiza jarayonida foydalanishni qamrab oladi" [4].

Z.R.Zufarova tomonidan nafaqat moliyaviy hisobot, balki hisob siyosatini tuzish borasida ham kompilyatsiya xizmatlaridan foydalanish masalalari taklif etilgan va quyidagi xulosaga kelgan "hisob siyosati bo'yicha axborotlarni kompilyatsiya qilish xo'jalik yurituvchi subyektlarda buxgalteriya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishga, shuningdek auditorlik tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining oshishiga olib keladi" [5].

Yuqorida keltirib o'tilgan fikrlardan moliyaviy ma'lumotlarni kompilyatsiyalashning ahamiyati yoritilgan, biroq kompilyatsiyalashni amalga oshirish bosqichlari va unda amalga oshiriladigan masalalar o'z aksini topmagan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada monografik kuzatish, ilmiy abstraksiya, qiyosiy tahlil, induksiya, deduksiya, tizimli yondashuv, ekspert baholash usullaridan foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi — bu mijoz tomonidan taqdim etilgan buxgalteriya va moliyaviy ma'lumotlarni belgilangan hisob standartlari asosida qayta ishlash va moliyaviy hisobot shakliga keltirish jarayonidir. Ushbu jarayonda professional buxgalter ma'lumotlarni tekshirmaydi va ular yuzasidan ishonch bildirmaydi.

Kompilyatsiya xizmatining asosiy maqsadi moliyaviy axborotlarni tartibga solish, ularni tushunarli va belgilangan shaklda taqdim etishdan iborat. Bu esa korxonahabariyati, investorlar va kreditorlar uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Kompilyatsiya xizmati ayniqsa kichik biznes subyektlari uchun muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday korxonalarda to'liq auditorlik tekshiruvini o'tkazish har doim ham iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son. <https://lex.uz/docs/-4746047>




Kompilyatsiya xizmati ko'rsatishda professional buxgalter va mijoz o'rtasida yozma kelishuv tuziladi. Mazkur kelishuvda quyidagi masalalar aks ettiriladi:

- xizmatning maqsadi va hajmi;
- tomonlarning huquq va majburiyatlari;
- moliyaviy hisobot tayyorlash asoslari;
- taqdim etiladigan axborotlar tarkibi;
- xizmat natijalari bo'yicha taqdim etiladigan hisobot shakli.

Kelishuv shartlarining aniq belgilanishi tomonlar o'rtasidagi mas'uliyatni taqsimlash va kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bahsli holatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Kompilyatsiya jarayoni odatda bir nechta bosqichlarda amalga oshiriladi (1-rasm).

Mijoz faoliyati va hisob siyosati bilan tanishish bosqichida professional buxgalter mijoz korxonasi faoliyat yo'nalishi, tashkiliy tuzilishi, iqtisodiy jarayonlari va qo'llanayotgan hisob siyosati bilan tanishadi. Ushbu jarayonda korxonaning asosiy faoliyat turi, daromad manbalari, buxgalteriya hisobi yuritish uslublari hamda qo'llanilayotgan hisob standartlari tahlil qilinadi. Bu bosqich buxgalterga moliyaviy axborotlarni to'g'ri tushunish va keyingi jarayonlarni samarali tashkil etish imkonini beradi.



1-rasm. Kompilyatsiya jarayoni bosqichlari<sup>2</sup>

Buxgalteriya ma'lumotlarini qabul qilish bosqichida mijoz tomonidan taqdim etilgan buxgalteriya hujjatlari, hisob registrlari va boshqa moliyaviy ma'lumotlar qabul qilinadi. Professional buxgalter hujjatlarning to'liqligi, rasmiylashtirilishi va o'zaro muvofiqligini ko'rib chiqadi. Shuningdek, hisobot tayyorlash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar yetarli emasligi aniqlansa, mijozdan qo'shimcha axborot va hujjatlar talab qilinadi. Bu bosqich kompilyatsiya jarayoni uchun asosiy axborot bazasini shakllantiradi.

Moliyaviy axborotlarni qayta ishlash bosqichida qabul qilingan buxgalteriya ma'lumotlari belgilangan hisob standartlari asosida qayta ishlanadi va tizimlashtiriladi. Buxgalter ma'lumotlarni tasniflaydi, hisob-kitoblarni amalga oshiradi hamda moliyaviy ko'rsatkichlarning mantiqiy muvofiqligini tahlil qiladi. Agar ma'lumotlarda aniq nomutanosibliklar yoki texnik xatolar mavjud bo'lsa, ularni bartaraf etish bo'yicha mijozga ma'lumot beriladi. Bu jarayon moliyaviy axborotlarni yagona va tushunarli shaklga keltirishga xizmat qiladi.

Hisobot shakllarini tayyorlash bosqichida qayta ishlangan moliyaviy ma'lumotlar asosida belgilangan shaklda moliyaviy hisobotlar tayyorlanadi. Jumladan, buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, pul oqimlari hisoboti va boshqa zarur shakllar rasmiylashtiriladi. Shuningdek, hisobotlarga izohlar va qo'shimcha ma'lumotlar ham kiritiladi. Hisobot shakllarini tayyorlash jarayonida ularning hisob standartlari talablariga muvofiqligi ta'minlanadi.

Kompilyatsiya hisobotini rasmiylashtirish bosqichida professional buxgalter kompilyatsiya xizmati natijalari bo'yicha kompilyatsiya hisobotini tayyorlaydi. Ushbu hisobotda moliyaviy ma'lumotlar mijoz tomonidan taqdim etilgani va professional buxgalter tomonidan ular qayta ishlangani qayd etiladi. Shu bilan birga, kompilyatsiya xizmati audit emasligi va buxgalter moliyaviy hisobotlar yuzasidan ishonch bildirmasligi ko'rsatiladi. Rasmiylashtirilgan hisobot mijozga belgilangan tartibda taqdim etiladi.

Kompilyatsiya xizmati auditdan mazmuni va maqsadi jihatidan farq qiladi. Audit jarayonida auditor moliyaviy hisobotlarni tekshirib, ular yuzasidan mustaqil fikr bildiradi. Kompilyatsiya jarayonida esa professional buxgalter faqat ma'lumotlarni qayta ishlaydi va hisobot shakliga keltiradi.

Quyida ushbu xizmatlar o'rtasidagi asosiy farqlar keltirilgan:

<sup>2</sup> Muallif ishlanmasi.

1-jadval. Kompilyatsiya va audit o'rtasidagi farqli jihatlar<sup>3</sup>

Taqqoslash mezonlari	Kompilyatsiya	Audit
Maqsad	Hisobot tayyorlash	Ishonch bildirish
Tekshiruv amallari	O'tkazilmaydi	O'tkaziladi
Ishonch darajasi	Bildirilmaydi	Bildiriladi
Natija	Kompilyatsiya hisoboti	Auditorlik xulosasi

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy hisobot kompilyatsiyasi kichik va o'rta biznes subyektlarida moliyaviy axborotlarni tizimlashtirishning samarali vositasi hisoblanadi. Kompilyatsiya xizmati orqali korxonalar moliyaviy hisobotlarni xalqaro va milliy standartlar talablari asosida shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shuningdek, kompilyatsiya xizmatlari moliyaviy axborotlarning shaffofligini oshirish, investorlar va kreditorlar uchun zarur ma'lumotlarni tayyorlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kompilyatsiya jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish hisobotlarni tezkor va samarali tayyorlash imkoniyatini kengaytirmoqda.

### XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotning kompilyatsiyasi bo'yicha kelishuv korxonalarda moliyaviy axborotlarni tizimlashtirish va ularni belgilangan hisob standartlari asosida tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu xizmat orqali moliyaviy ma'lumotlar yagona shaklga keltirilib, rahbariyat va tashqi foydalanuvchilar uchun tushunarli va qulay ko'rinishda taqdim etiladi. Bu esa boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida axborot sifati va shaffofligini oshirishga xizmat qiladi.

Kompilyatsiya xizmati audit xizmatidan farqli ravishda moliyaviy hisobotlar yuzasidan ishonch bildirishni nazarda tutmaydi. Professional buxgalter mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni qayta ishlab, belgilangan hisob standartlariga muvofiq shakllantiradi. Shu jihatdan kompilyatsiya jarayonida buxgalterning kasbiy malakasi, xolisligi va hisob standartlarini chuqur bilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kompilyatsiya jarayonining bosqichma-bosqich va tizimli tashkil qilinishi moliyaviy hisobotlarning sifatli tayyorlanishini ta'minlaydi. Ayniqsa, mijoz faoliyati va hisob siyosati bilan tanishish, buxgalteriya ma'lumotlarini tahlil qilish hamda hisobot shakllarini to'g'ri rasmiylashtirish moliyaviy axborotlarning aniqligi va mantiqiy muvofiqligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya xizmatlarini takomillashtirish milliy buxgalteriya va audit tizimini rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, professional buxgalterlarning malakasini oshirish va moliyaviy axborotlarni qayta ishlashning zamonaviy usullarini qo'llash kompilyatsiya xizmatlari samaradorligini yanada oshirish imkonini beradi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. ISRS 4410 Compilation engagements. <https://www.iaasb.org/publications/international-standard-related-services-isrs-4410-revised-compilation-engagements-basis-conclusions>
2. Алексеева И.В. Теоретико-методологические аспекты компиляции финансовой информации, предусматривающей формирование стратегической отчетности. // Все для бухгалтера, 1 (281) – 2015. Стр. 8-15.
3. Karimov A., Islomov F., Avlokulov A. Xalqaro audit. Darslik. -T.: "NIHOL PRINT", 2023. 400 bet.
4. Djumanov S.A. Moliyaviy hisobot axborotlarini xalqaro standartlar asosida kompilyatsiya qilishning nazariy jihatlarini. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2018-yil.
5. Zufarova Z.R. Hisob siyosati auditini takomillashtirish. //Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dis. avtoref. – T.: 2023. -56 b.

3 Muallif ishlanmasi.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2026. № 5 (3)

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---